

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “QORA KAMAR” DRAMASIDA MILLIY OZODLIK HARAKATINING BADIY IFODASI

Damirova Diyora Dilshod qizi
Buxoro davlat universiteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22139126>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning “Qora kamar” dramasi milliy ozodlik harakatining qurolli va mafkuraviy kurashlar kesishmasidagi badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Milliy ozodlik harakati yetakchilari oʻrtasidagi ichki parokandalik, shoʻro mafkurasining soʻz va targʻibot orqali xalq ongini shakllantirishdagi roli hamda uning yosh avlod taqdiriga taʼsiri tadqiq etiladi. Milliy ozodlik kurashining fojiaviy yakuni, avvalo, jismoniy emas, balki ruhiy sifatida ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: “Qora kamar” dramasi, milliy ozodlik harakati, qoʻrboshi, bosmachi.

Аннотация. В данной статье анализируется художественное изображение национально-освободительного движения в драме Шукура Холмирзаева “Qora kamar” на пересечении вооружённой и идеологической борьбы. Исследуются внутренняя разобщённость лидеров национально-освободительного движения, роль советской идеологии в формировании общественного сознания посредством слова и пропаганды, а также её влияние на судьбу молодого поколения. Трагический исход национально-освободительной борьбы раскрывается прежде всего как поражение духовное, а не физическое.

Ключевые слова: Драма “Qora kamar”, национальное освободительное движение, курбаши, басмачи.

Abstract. This article analyzes the artistic representation of the national liberation movement in Shukur Kholmiraev’s drama “Black Belt” at the intersection of armed and ideological struggles. The internal disunity among the leaders of the national liberation movement, the role of Soviet ideology in shaping public consciousness through words and propaganda, and its impact on the fate of the younger generation are examined. The tragic outcome of the national liberation struggle is revealed primarily as a spiritual, rather than physical, defeat.

Keywords: The drama “Qora kamar”, national liberation movement, kurbashi, Basmachi.

Oʻzbek adabiyotida yaqin oʻtmishimizning qora kunlari boʻlgan qoʻrboshilarning milliy ozodlik yoʻlidagi fidoyiliklari va ularning ayanchli taqdirining badiiy ifodasi turli janr va shakllarda oʻz aksini topgan. Xususan, Shukur Xolmirzayevning “Qora kamar” asari orqali milliy ozodlik harakatlari badiiy-dramatik yoʻsinda yuksak mahorat bilan tasvirlangan, undagi voqealarning sahnaviy taʼsirchanligi har bir kitobxonni oʻtmishning qora kunlariga bevosita guvohdek his qildiradi. Tahlildan avval asar sarlavhasi har qanday kitobxonning diqqatini tortishi mumkin. Asarga birgina munosib sarlavha qoʻyishning oʻzi yozuvchidan yuksak badiiy mahorat talab qiladi. Nega aynan qora kamar? qora rang? Yozuvchi nega oq kamar yoki qizil kamar emas, aynan qora rang bilan nomlagan? Bu yerda sarlavhaning oʻzi dramaning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qilayotgan ramziy maʼnoni tashiyotgandek. Aksariyat holatlarda qora rang yovuzlik, yomonliklarning timsoli sifatida talqin etiladi. Tarixdan maʼlumki, shoʻro hukumati asl yurt fidoyilari boʻlgan qoʻrboshilarni oʻz xalqiga, jigarlariga hattoki farzandlariga ham yuzlariga qora tortib “Bosmachi” deb tanitgan. Asarda Qora kamar Surxon vohasidagi joy nomi boʻlib, uyerni qoʻrboshilar oʻzlariga manzilgoh qilib olishgan edi. Asar nomidagi “Qora kamar” bir tomondan voqealar kechadigan makonni anglatasa, ikkinchi tomondan milliy ozodlik kurashchilarining tarixiy qiyofasiga tortilgan mafkuraviy “Qora tamgʻa”ning ramziy ifodasi sifatida talqin etish mumkin.

Drama voqealari Xurrambek ismli qoʻrboshining qarorgohi (Qora kamar)da boʻlib oʻtadi. Drama davomida Xurrambek obrazi yurt ozodligini har qanday narsadan, hattoki oʻz oilasidan ham ustun qoʻyadigan haqiqiy vatanparvar inson sifatida gavdalanadi. Shoʻro hukumati Turkistonning deyarli barcha yerlaridagi qoʻrboshilarni bostirgan, faqatgina Surxon vohasigina qolgan edi. Aniqrogʻi, Xurrambekday jasur millatparvar sabab Surxon hali qoʻldan ketmagan edi. Biroq u ham oxir-oqibat bu ashaddiy jangda yengiladi. Magʻlubiyatning asosiy sababi qoʻrboshilar orasida birdamlikning yoʻqligi va shoʻro hukumati qoʻllagan mafkuraviy qurol edi. Muallif qoʻrboshilar magʻlubiyatini faqat harbiy kuchlar tengsizligi bilan izohlamaydi. Asarda milliy ozodlik harakatining tanazzuliga olib kelgan eng muhim omil sifatida qoʻrboshilar oʻrtasidagi birlikning yoʻqligi koʻrsatiladi. Bir maqsad yoʻlida kurashayotgan qoʻrboshilar shaxsiy kelishmovchiliklar sabab birlasha olmaydilar. Natijada ozodlik harakatining kuchi tashqi dushman

tomonidan emas, avvalo ichki parokandalik tufayli zaiflashadi. Drama ham aynan mana shu kelishmovchiliklardan ya'ni, mag'lubiyatga uchrab Afg'onga qochgan, keyinchalik oti Tangriqashqa uchun qaytgan sobiq qo'rboshi Ostoning Qora kamarga kelishi bilan boshlanadi. Ostoning qo'rboshilarni bosmachi, qonxo'r deb yosh avlodning ongiga singdirish, yurtni ulardan tozlash kerakligini uqtirishga kelgan Abdulla Nabiyeving qochishiga yordam berishi uning ulkan xiyonati bo'ldi. Yana bir Ibrohimbek ismli qo'rboshining Xurrambek bilan bo'lgan kelishmovchilik sabab Afg'onga o'tib ketgani, u yerdan turib qurol yarog'ga muhtoj Qora kamar lashkarlariga yordam bermasligi, Xurrambekning yalinib kechirim so'rab kelishini kutib turishi ular orasida birdamlik bo'lmaganini ko'rsatadi. Shu o'rinda Qoraxo'ja eshonning: “Bul turkiy xalqlarning boshi birikmaydi! Ul biriksa, bu yorug' olam oyoqlarimiz ostida bo'lurdi. Naqadar haq gaplar! Xudo qarg'agan xalq ekanmiz”, – deya ta'kidlashi muallifning milliy ozodlik harakatining fojiaiy yakunini, avvalo, ichki parokandalik va birlikning yo'qligi bilan izohlash g'oyasini ilgari surganini anglatadi. Mag'lubiyatning ikkinchi sababi sho'ro mafkurasining quroli bosmachilar qurolidan o'tkirroq ekanligida edi. Millatparvarlar qo'lda qurol tutib jangga shaylanishgan bo'lsa, sho'ro asosiy qurol sifatida “So'z”dan foydalandi. Dramaning g'oyaviy-badiiy tizimida qurolli kurash va mafkuraviy kurash o'rtasidagi qarama-qarshilik alohida o'rin tutadi. Qo'rboshilar ozodlik uchun qurol bilan kurashayotgan bir paytda, sho'ro mafkurasi inson ongi va xalq tafakkurini egallashga qaratilgan boshqa bir kurashni olib boradi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, asarda qurol va so'z ikki xil kurash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Xurrambek va uning safdoshlari dushmanga qarshi qurol bilan kurashishga tayyor turgan bir paytda sho'ro mafkurasi o'z ta'sirini qurol bilangina emas, balki targ'ibot, tashviqot va so'z orqali kengaytiradi. Buning yorqin isboti Boysunga kelgan qo'qonlik shoir Abdulla Nabi obrazi orqali namoyon bo'ladi. Uning asosiy maqsadi yoshlarning ongiga yangi tuzum aqidalarini singdirish, hududlarda sho'ro hokimiyatining ta'sirini kuchaytirish, oxir-oqibat Xurrambekni bu yurtidan badarg'a qilish yoki qo'lga olib, sho'ro sudiga topshirishdan iborat edi. U yangi tuzumni madh etuvchi she'rlar yozib, ularni yosh avlodga yod oldirtiradi

Yasha Sho'ro, yasha Sho'ro!

Sen yashaydurg'on zamon.

Ishchi o'g'li shuhratingdan

Bolqisin ro'yi jahon!

Yasha Sho'ro, yasha Sho'ro!..

Mazkur she'rni ibtidoiy maktab bolalariga Abdulla Nabi o'rgatgan bo'lib, uni yod olganlar orasida Xurrambekning o'g'li Umidjon ham bor edi. Bolalar sho'roni madh etuvchi ushbu she'rni aytib, Qora kamar tomon keladilar. Ular qarorgohga yaqinlashgan paytda Umidjon otasini ko'rib qoladi. Ota-o'g'il suhbatidan bolaning dunyoqarashidagi o'zgarish namoyon bo'la boshlaydi va bu Xurrambekni xavotirga soladi. Umidjonning yod olgan shiorlari, gap so'zlaridan uning va tengdoshlarining yangi tuzum mafkurasi ostida tarbiyalanayotgani ayon bo'ladi. Endi otaning farzand tarbiyasi va tahsili haqidagi orzu va o'ylari chipakka chiqib bo'lgan edi. Xurrambek o'g'lini Boysun madrasasiga qo'yishni, keyinchalik Buxoroda, so'ngra Istambulda o'qitishni orzu qilardi Ammo, buni Umidjonga aytganda bolalarning Abdulla Nabi aytgandek Moskvada, Leningradda o'qishlari kerakligini aytishi Xurrambekni yosh avlodning ong-u shuuri allaqachon egallab bo'lingani va ularning qalbiga begona g'oyalar singib ulgurganiga amin qildiradi. Drama so'nggida Abdulla Nabini qo'lga olib Qora kamarga, Xurrambekning oldiga olib kelishadi. Biroq uning tili kesib tashlangani Xurrambek uchun u bilan suhbatlashish chog'ida noqulaylik tug'dirdi: “Xo'sh, bu yurtga... o'z ixtiyoring bilan keldingmi? Yoki Sho'rolar buyurdimi? (Abdulla to'lg'anadi. Iyagini ko'ksiga tegizadi.) A-aa, o'z ixtiyoring bilan? Bay-bay-bay!.. Qo'rqmadingmi? (Abdulla rad ma'nosida bosh chayqaydi.) O'-o'o'! Botir ekan. O'risning tarbiyasini olgan-da?.. (Yana tutaqib ketib.) Bu yer – Surxonku?! Toshkent allaqachon Sho'roniki bo'ldi! Xorazm ham o'risga qo'l ko'tardi! Junayid ham oblo akbar bo'ldi! Seni... Farg'onang ham... senga o'xshagan maraz-sotqinlarning orqasida o'ris mulkiga aylandi! Faqat shu yer, shu yurt qolgan edi... (Sukut.) Shu yerda tiriklar qolgan edi! Fidoyilar qolgandi... (Abdullaga.)”. Chindan ham o'sha davrda Abdullaga o'xshagan sho'roga sotilgan, xoin kimsalar ko'p edi. Eng achinarlisi ham bunday kimsalarning millat orasidan yetishib chiqqanligi edi. Bunday paytda Xurrambekday fidoyi insonlarning yurt uchun qayg'urishi va kurash olib borishi behudadek edi. Sababi xalq, yosh avlod va ular orasidagi o'g'li Umidjon ham yangi tuzum g'oyalariga ergasha boshlagani, hattoki Xurrambekning qo'l ostidagi ayrim qo'rboshilarning xiyonati uni bu kurashda behudaga chiranayotgan inson qilib ko'rsatadi. Asar so'nggida Abdullaning o'ldirilganini ko'rgan Umidjon otasidan nafratlanadi. Atrofdagilar Abdullaning jasadini ko'mish uchun Xurrambekdan izn so'rashganda Umidjonning: “Ota, bering... (Birdan uning yengiga yopishadi.) Bering, qonxo'r!”, deyishi otani g'azablantiradi va u ham

beixtiyor: “Yo‘qol! Itvachcha...”, deb o‘g‘lini o‘tirgan yeridan tepib yuboradi. Shundan so‘ng Umidjon tomoshabinlarga qarab tiz cho‘kadi va qo‘llarini fotihaga ochib: “Men itvachchaman... shuning uchun sizday... otam yo‘q. Oblohu akbar”, deyishi drama kulminatsiyasini belgilovchi fojeaviy nuqtaga aylanadi. Ushbu so‘zlardan so‘ng Xurrambek butkul mag‘lub bo‘lganini anglaydi. Sababi farzandining so‘nggi so‘zlari o‘tkir tig‘ga aylanib otaning yuragiga sanchiladi. Xurrambek hech qanday dushman tomonidan qurol bilan o‘ldirilmadi yoki hibsga olib mag‘lub etilgani yo‘q edi. Biroq uning qalban va ruhan o‘lgani mana shu nuqtada namoyon bo‘ladi. Bu shunchaki ota va o‘g‘il o‘rtasidagi oddiy oilaviy konflikt emas, balki butun bir millatning fojeasi desak ham bo‘ladi. Sababi birgina Xurrambekning o‘g‘li emas, balki butun millat bolalarining ongi zaharlanib bo‘lgan edi.

E’tiborli tomoni shundaki, drama 1987-yilda yozilgan bo‘lib, Shukur Xolmirzayev ushbu asari orqali milliy ozodlik kurashiga mustaqillikdan keyingi davrda emas, balki hali sho‘ro mafkurasi hukmron bo‘lgan sharoitning o‘zidayoq badiiy munosabat bildira olgan. Sovet mafkurasi hali hukmron yillari bunday mavzuda asar yaratishning o‘zi bir jasoratdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, g‘oyaviy jihatdan pishiq, o‘qishli asar avvalo zamon sinovidan o‘ta olishi kerak. “Qora kamar” aynan shunday tipdagi asardir. Sababi, undagi mavzu bugungi kun uchun ham dolzarb. Yurtimiz mustaqilligi va milliy davlatchilgimiz yo‘lida jon fido qilgan millatparvarlarni unutishga haqqimiz yo‘q. Chunki, ular kutgan, orzu qilgan Vatanda bugun bizlar tinch va osuda yashayapmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xolmirzayev Sh. Qora kamar // Sharq yulduzi. — 1990. — № 9. — B. 125